O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI
RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

# 2016-2017-O‘QUV YILIDA UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARINING 5-6 −SINF O‘QUVCHILARI UCHUN MATEMATIKA, ADABIYOT, CHET TILI, RUS TILI, BOTANIKA, TARIX FANLARIDAN BOSQICHLI NAZORAT IMTIHON MATERIALLARI VA METODIK TAVSIYALAR TO‘PLAMI

TOSHKENT − 2017

Imtihon materiallari va tavsiyalar Respublika ta’lim markazi qoshidagi ilmiy-metodik kengashlar tomonidan muhokama qilinib, nashrga tavsiya etilgan.

Maktab metodbirlashmalari imtihon biletlariga 15-20 % hajmda o‘zgartirishlar kiritishi mumkin.

Tuzuvchilar**:**

**5-SINF**

**MATEMATIKA**

***L.N. Ten*** – RTM, "Aniq va tabiiy fanlar" bo‘limining bosh metodisti .
***J. B. Abdurahmonova*** –Aniq fanlarga ixtisoslashtirilgan davlat umumta’lim maktabi matematika fani o‘qituvchisi .

**ADABIYOT**

***Sh.Abduhamidova*** - RTM, filologiya bo‘limi metodisti

**RUS TILI**

***Z.Atayeva*** –RTM, xorijiy tillar bo‘limi bosh metodisti .
***Yu.Musurmonova*** –Yangiyer shahridagi 5- maktabning oliy toifali o‘qituvchisi.

**6-SINF**

**CHET TILI**

***X.Isakjanova*** - RTM, xorijiy tillar bo‘limi boshligi .

**TARIX**

***Sh .Safarova*** – RTM, ijtimoiy, iqtisodiy bilim asoslari va ma’naviy- ma’rifiy ishlar bo‘limi bosh metodisti.

**BOTANIKA**

1. ***I.Saparboyev*** **-** RTM, Respublika ta’lim markazi, biologiya fani metodisti.
2. ***B.Raximova*** –Yunusobod tumanidagi 105- maktabning biologiya fani o‘qituvchisi.

**Imtihon materiallarini ko‘paytirib tarqatish taqiqlanadi**.

## So‘zboshi

O‘zbekiston Respublikasi umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5-sinflarida matematika fanidan bosqichli nazorat imtihon yozma ish shaklida, tavsiya etilgan topshiriq variantlari asosida o‘tkaziladi.

Bosqichli nazorat imtihoni uchun matematikadan taqdim etilgan ishlar ikki variantda berilgan. Mazkur topshiriqlar 5-sinfda o‘quvchilar ega bo‘lishi kerak bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarni tekshirish uchun xizmat qiladi.

Bosqichli nazorat imtihoniga 2 astronomik soat ajratiladi.

Matematika fani chuqurlashtirib o‘tiladigan maktab (sinf) ma'muriyati maktab matematika o‘qituvchilari metodik birlashmasi qarori bilan 5-sinf o‘quv dasturiga mos keladigan bittadan qo‘shimcha topshiriq kiritishlari lozim. Shuning uchun topshiriq yechimlarini izohlab yozishlariga qo‘shimcha (30 daqiqa) vaqt beriladi.

Imtihon boshlanishidan oldin imtihon komissiyasining raisi 5 ta muhrlangan konvertlarni stol ustiga qo‘yadi.

Sinf o‘qituvchilaridan biri ushbu konvertlardan bittasini tanlaydi konvert muhri buzilmaganligiga ishonch hosil qilganidan so‘ng sinf o‘quvchilari oldida konvertni ochadi va 2 variantdan iborat topshiriqning raqamini e’lon qiladi.

O‘qituvchi doskada topshiriqning ikkala variantini yozadi va chap qatorda o‘tirdan o‘quvchilar 1 - variantni, o‘ng qatordagi o‘quvchilar 2 - variantni yechishlarini tushuntiradi.

So‘ng o‘qituvchi har bir variant topshiriqlarini tushuntirib, yozma ishni yozishga qo‘yilagan talablarni aytib o‘tadi.

Yozma ishga ajratilgan vaqt e’lon qilinib, doskada imtihonni boshlanish va tugash vaqti yozib qo‘yiladi.

O‘quvchilarning yozma ishlari 5 ballik baholash tizimi asosida baholanadi.

**Bosqichli nazoratda o‘quvchilarning matematikadan yozma ishlarini baholash mezoni**

| №/№ | Yechimning to‘g‘riligi /noto‘g‘riligi | ball |
|---|---|---|
| 1 | Har qanday to‘g‘ri yechim uchun; mantiqiy fikrlash va yechimni asoslashda hatoga yo‘l qo‘yilmasa; javobga mos chizma to‘g‘ri bajarilsa, hamda yozma ishga qo‘yilgan barcha talablarga mos kelsa. | 5 |
| 2 | Har qanday to‘g‘ri yechim uchun, lekin hisoblashdagi kamchiliklar va 1-2 ta juziy hatolar uchun. | 4 |
| 3 | Topshiriqni bajarishda qo‘pol xatoliklar va hisoblashdagi kamchiliklarga yo‘l qo‘yganligi, javobga to‘g‘ri erishilmaganligi uchun. | 3 |
| 4 | O‘quvchining bajargan ishida bo‘shliqlar juda ko‘p bo‘lgani sababli to‘g‘ri lavobga erishilmagani, lekin yechimda to‘g‘ri goya borligi ichun. | 2 |
| 5 | Matematika nuqtai nazardan yechish boshlangan, lekin hisoblashda qo‘pol xatolarga yo‘l qo‘yish natijasida noto‘g‘ri javob hosil qilingani va yechish izohlanmagani uchun. | 1 |

**Matematika V - sinf**

**I topshiriq**

**1 variant**

1. 99989 dan katta, 6 raqami bilan tugaydigan besh xonali sonni yozing .

2. Ifodaning qiymatini toping: a) $9\frac{13}{19}+\left(8\frac{13}{19}-3\frac{15}{19}\right)$ ;

b) $10\frac{4}{21}-\left(4\frac{10}{21}+3\frac{19}{21}\right)$.

3. O‘z tezligi 15 km/ soat bo‘lgan kater 2 soat daryo oqimi bo‘yicha va 3 soat daryo oqimiga qarshi suzdi. Agar daryo oqimining tezligi 2 km/soat bo‘lsa, kater shu vaqt oralig’ida qancha masofani bosib o‘tgan.

4. Tenglamani yeching: $4{,}2 \cdot (0{,}25 + x) = 1{,}47$.

5. To‘g‘ri to‘rtburchak shaklida bo‘lgan bog’ maydonining yuzasi 6 ar. Bog’ kengligi 20 m. Bog’ning uzunligi nimaga teng ?

**2 variant**

1. 99988 dan katta, 7 raqami bilan tugaydigan besh xonali sonni yozing .
2. Ifodaning qiymatini toping: a) $8\frac{7}{9}+\left(7\frac{5}{9}-4\frac{4}{9}\right)$;

б) $11\frac{2}{19} - \left(3\frac{17}{19} + 6\frac{14}{19}\right)$.

3. O‘z tezligi 12 km/ soat bo‘lgan kater, daryo oqimi bo‘yicha 3 soat va daryo oqimiga qarshi 5 soat suzdi. Agar daryo oqimining tezligi 3 km/soat bo‘lsa , kater shu vaqt oralig’ida qancha masofada bosib o‘tgan.

4. Tenglamani yeching: $3{,}8 \cdot (x + 1{,}3) = 9{,}5$.

5. To‘g‘ri to‘rtburchak shaklidagi yer maydonining yuzasi 12 ar. Yer maydonining eni 30 m. Yer maydonining uzunligi nimaga teng ?

## II topshiriq

### 1 variant

1. Koordinata (son) nurida koordinatalari 6, 2, 5 va 9 bo‘lgan nuqtalarini belgilang.

2. Tenglamani yeching: a) $5m + 6m = 231$; б) $7x - 3x = 412$ .

3. Yashikda 120 kg arpa bor. Yashikdan bir gop arpa olinganidan so‘ng, unda 65 % arpa qoldi. Qopga qancha arpa solingan ?

4. Amallarni bajaring: $0{,}81 : 2{,}7 + 4{,}5 \cdot 0{,}12 - 0{,}69$

5. To‘g‘ri to‘rtburchakning bo‘yi 78 sm, eni esa bo‘yidan 3 marta qisqa. Shu to‘g‘ri to‘rtburchakning perimetri va yuzasini toping.

### 2 variant

1. Koordinata (son) nurida koordinatalari 4, 3, 7 va 5 bo‘lgan nuqtalarini belgilang.

2. Tenglamani yeching: a) $4x + 7x = 132$; б) $5m - 3m - 222$.

3. Yashikda 120 kg guruch bor. Bir necha kundan so‘ng yashikdagi guruchning 25 % i qoldi. Yashikdan necha kg guruch olingan ?

4. Amallarni bajaring: $0{,}56 : 1{,}4 + 8{,}6 \cdot 0{,}15 - 0{,}15$

5. To‘g‘ri to‘rtburchakning eni 18 m, va u bo‘yidan 4 marta qisqa. Shu to‘g‘ri to‘rtburchakning perimetri va yuzasini toping.

## III topshiriq

### 1 variant

1. Sonlarni yaxlitlang: a) 73847 sonini minglar xonasiga;

б) 65237 sonini yuzlar xonasigacha;
в) 578299 sonini o‘n minqlar xonasiga.

2. Agar $k = 754,\ m = 258$ bo‘lsa, $(823 - k) + m)$ ifodaning qiymatini toping.

3. Do‘ konga bir yashigida 3,6 kg dan bo‘lgan 10 ta yashik va bir yashigida 3,2 kg dan bo‘lgan 40 ta yashik keltirildi. Bitta yashikda o‘rtacha necha kilogram olma bor ?

4. Tenglamani yeching: а) $x - 1\frac{5}{7} = 2\frac{1}{7}$; б) $\left(12\frac{5}{13} + y\right) - 9\frac{9}{13} = 7\frac{7}{13}$.

5. Agar xonaning eni 3,8 m, bo‘yi enidan 0,7 m ga uzun balandligi esa bo‘yidan 1,5 marta qisqa bo‘lsa, uning hajmini toping.

**2 variant**

1. Sonlarni yaxlitlang: а) 147827 sonini minglar xonasigacha;
б) 24869 sonini yuzlar xonasigacha;
в) 586382 sonini o‘nminqlar xonasigacha.

2. Agar $a = 549,\ b = 193$ bo‘lsa, $(654 + a) - b$ ifodaning qiymatini toping.

3. 3 kun davomida kuniga 0,9 tonnadan keyingi 2 kun 1,3 tonnadan olmalar terildi. Bir kunda o‘rtacha necha kg dan olmalar terilgan ?

4. Tenglamani yeching: а)$y - 2\frac{1}{5} = 5\frac{2}{5}$; б) $\left(3\frac{9}{13} + y\right) - 4\frac{9}{13} = 1\frac{7}{13}$ .

5. Agar xonaning bo‘yi 5 m, eni bo‘yidan 1,64 m ga qisqa, balandligi esa enidan 1,8 marta qisqa bo‘lsa, uning hajmini toping.

**IV topshiriq**
**1 variant**

1. 26012 soni 49156 sonidan qanchaga kichik va 17381 sonidan qanchaga katta?

2. Ifodaning qiymatini toping: а)$\frac{6}{13} + \frac{4}{13} - \frac{8}{13}$; б) $7\frac{13}{15} - \left(2\frac{7}{15} + 3\frac{4}{15}\right)$;
в) $\left(9\frac{12}{25} - 8\frac{16}{25}\right) + 4\frac{17}{25}$.

3. Qayiq oqim bo‘yicha 0,8 soat va oqimga qarshi 0,3 soat suzdi. Qayiqning o‘z tezligi 3,8 km/soat, oqim tezligi esa 1,3 km/soat. Qayiq shu vaqt oralig’ida qancha masofani suzib o‘tdi ?

4. Tenglamani yeching: $(4{,}5 - x) \cdot 5{,}8 = 8{,}7$.

5. Agar $\angle CAB = 53^o$, $\angle MNK = 90^o$ $va$ $\angle POE = 118^o$ bo‘lsa, $CAB$, $MNK$ $va$ $POE$ burchaklarini yasang.

**1 variant**

1. 27843 soni 37123 sonidan qanchaga kichik va 11248 sonidan qanchaga katta?

2. Ifodaning qiymatini toping: a) $\frac{2}{9} + \frac{6}{9} - \frac{3}{9}$; б) $8\frac{25}{27} - \left(3\frac{8}{27} + 2\frac{3}{27}\right)$;
в) $\left(8\frac{3}{17} - 7\frac{15}{17}\right) + 3\frac{16}{17}$

3. Kater oqim bo‘yicha 2,5 soat va oqimga qarshi 0,8 soat suzdi. Agar katerning o‘z tezligi 40 km/soat, oqim tezligi esa 2,2 km/soat bo‘lsa, kater shu vaqt oralig’ida qancha masofani bosib o‘tdi ?

4. Tenglamani yeching: $4{,}2 \cdot (0{,}25 + x) = 1{,}47$

5. Agar $\angle BCA = 154^o$, $\angle KMN = 28^o$ va $\angle OPE = 90^o$ bo‘lsa, $BCA$, $KMN$ va $OPE$ burchaklarini yasang.

**V topshiriq**

**1 variant**

1. Ifodaning qiymatini toping: a) $35^2 - 34 \cdot 32$; б) $(14 + 16^2){:}\,15$.

2. Ifodaning qiymatini hisoblang: $45{,}2 - a{:}\,b$, bunda $a = 0{,}339$, $b = 0{,}12$.

3. Istirohat bog’ining 3 ta gulzor va yo‘lkalari bo‘ylab 46 ta atirgul ko‘chati ekildi. Agar yo‘lkalar bo‘ylab 16 ta atirgul ekilgan bo‘lsa, 1 ta gulzorga nechta atirgul ekilgan ?

4. Tenglamani yeching: a) $\left(x + \frac{1}{7}\right) - \frac{4}{7} = \frac{2}{7}$; б) $\left(x - 1\frac{8}{9}\right) + 3\frac{7}{9} = 4\frac{4}{9}$

5. $CED$ uchburchakning perimetri 36 dm. $CE$ tomoni 15 dm, $ED$ tomoni esa $CE$ tomonidan 3 marta qisqa. $CD$ tomoning uzunligini toping.

**2 variant**

1. Ifodaning qiymatini toping: a) $28^2 - 27 \cdot 25$; б) $(21^2 + 53){:}\,26$

2. Ifodaning qiymatini hisoblang: $45{,}2 - a{:}\,b$, bunda $a = 32{,}16$; $b = 0{,}8$.

3. Sayohatchilar 5 kunda baydarkada 98 km suzdilar. Birinchi kuni 22 km suzishdi. Keyin har kunida bir xil masofani suzib o‘tdilar. Shu masofani toping.

4. Tenglamani yeching: а) $\frac{5}{9}+\left(x-\frac{2}{9}\right)=\frac{7}{9}$; б) $\left(x+2\frac{9}{11}\right)-4\frac{10}{11}=1\frac{4}{11}$

5. $ABD$ uchburchakning perimetri 80 sm. $AB$ tomoni 12 sm, $BD$ tomoni esa $AB$ tomonidan 3 marta uzun. $AD$ tomonning uzunligini toping.

## 5 КЛАСС

## РУССКИЙ ЯЗЫК

Переводной экзамен по русскому языку в 5 классе школ с узбекским и другими языками обучения проводится в устной форме. Цель проведения экзамена – проверить знания, полученные на уроках русского языка в 5 классе.

Билеты состоят из трёх вопросов. Первый вопрос проверяет уровень усвоения изученного в течение учебного года грамматического материала. Второе задание проверяет умения и навыки беглого, правильного, сознательного чтения, умение отвечать на вопросы по содержанию текста. Третье задание выясняет умение применять полученные знания при составлении собственных высказываний по заданным темам и ситуациям.

Объём высказываний учащихся - 4–5 фраз. Тексты из программного материала заранее подбирает учитель, составляя к ним по 3 вопроса.

Запечатанные конверты с экзаменационными материалами вскрываются в начале экзамена в присутствии всех учеников, о чём составляется акт. На подготовку учащихся к ответам отводится 15–20 минут.

За выполнение заданий выставляется одна общая оценка. После проведения экзамена результаты объявляются в присутствии всех учащихся.

**Критерии оценки устных ответов учащихся**

Выставляется:

«5»– если объём высказывания учащегося соответствует требованиям программы, высказывание полностью соответствует теме. Допускается не более 1–2 речевых ошибок.

«4» – если высказывание соответствует заданиям, при этом допущено не более 3–5 речевых ошибок.

«3» – если объём высказывания недостаточно полный, но соответствует заданиям, при этом допущено не более 6–9 речевых ошибок.

«2» – если объём высказывания неполный, высказывание не соответствует заданиям, допущено 10 и более речевых ошибок.

«1» – если учащийся не сумел ответить ни на одно задание, составить ни одной фразы.

***Примечание:*** Под речевой ошибкой, понимается ошибка, общая для устной и письменной речи, которая ясно воспринимается на слух («светлый комната», «пёт воду», «читать книга» и т.д.). В количество подсчитываемых ошибок включаются лексические и грамматические.

**Билет № 1**

1. Прочитайте предложения, правильно вставив окончания в выделенных словах.

Ученики *выполнил…* все задания.

Девочка *прочитал…* интересную книгу.

Мансур *написал…* диктант очень грамотно.

2. Прочитайте вслух отрывок из русской народной сказки «Лиса и журавль» Ответьте на вопросы к тексту.
3. Прочитайте наизусть любимое стихотворение.

**Билет № 2**

1. Прочитайте предложения, правильно вставив окончания в выделенных словах.

Я *любл…* весенние цветы.

Он *чита…* очень медленно.

Вы *пиш…* диктант в новой тетради.

2. Прочитайте вслух отрывок из русской народной сказки «Каша из топора». Ответьте на вопросы к тексту.
3. Расскажите, кем вы хотите стать после школы.

**Билет № 3**

1. Прочитайте предложения, правильно вставив окончания в выделенных словах.

У меня есть *красив… нов…* сумка.

В класс вошёл учитель *русск…* языка.

Малика принесла *интересн…* сказки.

2. Прочитайте вслух рассказ Ушинского «Дедушка». Ответьте на вопросы к тексту.
3. Расскажите о празднике Навруз.

**Билет № 4**

1. Прочитайте предложения, правильно вставив окончания в выделенных словах.

Завтра мы *буд…* писать диктант.

Летом я *буд…* играть в футбол.

Они *буд…* выполнять задание очень внимательно.

2. Прочитайте вслух отрывок из рассказа К.Ушинского «Петух да собака». Ответьте на вопросы к тексту.
3. Прочитайте наизусть любимое стихотворение.

**Билет №** 5

1. Прочитайте предложения, правильно вставив окончания в выделенных словах.

Мама испекла *шоколадн…* торт.

Вечером пришли *знаком…* ребята.

Мы увидели *нов…* фильм.

2. Прочитайте вслух отрывок из сказки Д.Н.Мамина-Сибиряка «Серая Шейка» (часть 1). Ответьте на вопросы к тексту.

3. Расскажите о своей семье. Укажите возраст родителей, брата или сёстры.

**Билет № 6**

1. Ответьте на вопросы.

Какое варенье ты любишь?

Какая форма нужна в школе?

Какая одежда нужна зимой?

2. Прочитайте вслух отрывок из рассказа Ю. Дмитриева «Как живёшь…?» Ответьте на вопросы.

3. Расскажите, какой вид спорта вам нравится.

**Билет № 7**

1. Прочитайте предложения, правильно вставив окончания в выделенных словах.

Я люблю читать стихи *Пушкин…* и рассказы *Пришвин…* .

Мы ходили в театр *опер..* и *балет…* .

Это книга моей *сестр…* .

2. Прочитайте вслух отрывок из рассказа М.Пришвина «Ребята и утята». Ответьте на вопросы к тексту.

3. Расскажите о столице Узбекистана Ташкенте.

**Билет № 8**

1. Ответьте на вопросы.

Сколько дней в неделе?

Сколько месяцев в году?

Сколько учеников в вашем классе?

2. Прочитайте вслух отрывок из рассказа Б.Житкова «Кружечка под ёлочкой» Ответьте на вопросы к тексту.

3. Расскажите об экскурсии в музей.

**Билет № 9**

1. Прочитайте предложения, правильно вставив слова.

Руки надо мыть … и вытирать … .

Котлеты едят …, а суп - … .

Зубы чистят … .

2. Прочитайте вслух отрывок из рассказа В.Бианки «Первая охота». Ответьте на вопросы к тексту.

3. Расскажите о любимой телепередаче.

## Билет № 10

1. Прочитайте предложения, правильно вставив слова.

Мой брат хочет стать … .
Саида мечтает быть … .
Дедушка Азамата был … .

2. Прочитайте вслух отрывок из рассказа Г.Скребицкого «Зима-художник». Ответьте на вопросы к тексту.

3. Расскажите о своих друзьях или подругах.

## Билет № 11

1. Подберите к данным прилагательным синонимы.

*Большой, сильный, умный, хороший.*

2. Прочитайте вслух отрывок из рассказа Н.Носова «Федина задача». Ответьте на вопросы к тексту.

3. Расскажите о школьной библиотеке.

## Билет № 12

1. Ответьте на вопросы.

Что ты делал вчера вечером?
Что ты будешь делать летом?
Что делают ученики каждый день?

2. Прочитайте вслух рассказ Е. Чарушина «Томка». Ответьте на вопросы к тексту.

3. Прочитайте наизусть любимое стихотворение.

## Билет № 13

1. Дополните предложения нужными словами.

В шкафу не было … .
На столе нет … .
Зимой не будет … .

2. Прочитайте вслух отрывок из рассказа Н.Носова «Огурцы». Ответьте на вопросы к тексту.

3. Расскажите о правилах поведения на улице.

## Билет № 14

1. Вставьте слова в предложения.

Это моя подруга Шахина. Вот … квартира. Квартира … на втором этаже.

Это … друг Адхам. Вот … велосипед. Велосипед … очень нравится.

2. Прочитайте вслух отрывок из рассказа Н.Носова «Фантазёры». Ответьте на вопросы к тексту.

3. Расскажите о профессиях своих родителей.

**Билет № 15**

1. Прочитайте предложения, правильно вставив окончания.

В школе нет *футбольн…* команды.

У меня нет *баскетбольн…* сетки.

У тренера нет *свободн…* времени.

2. Прочитайте вслух отрывок из сказки Г.Х.Андерсена «Дюймовочка» (часть 1). Ответьте на вопросы к тексту.
3. Расскажите о своих любимых сказках.

**Билет № 16**

1. Прочитайте предложения, правильно вставив окончания.

Мы рассказали *о дедушк…* своему учителю.

Малыш вспомнил *о* машинк.. .

Учитель говорил *о природ…* Узбекистана.

2. Прочитайте вслух стихотворение Д.Родари «Чем пахнут ремёсла?» Ответьте на вопросы к тексту.
3. Расскажите о правилах дорожного движения.

**Билет № 17**

1. Прочитайте предложения, правильно вставив окончания.

Мы купили в магазине *груш…* и *яблок..* .

У девочки есть цветные *карандаш…* и *краск…* .

На столе лежат *журнал…* и *газет…* .

2. Прочитайте вслух стихотворение С.Маршака «Веселое путешествие…» Ответьте на вопросы к тексту.
3. Расскажите о покупках в магазине «Продукты».

**Билет № 18**

1. Прочитайте предложения, правильно вставив окончания в выделенных словах.

Друзья подарили *брат…* альбом и краски.

Я позвонил *бабушк…* в Самарканд.

Ученики сдали тетради *учител…* .

2. Прочитайте незнакомый текст. Ответьте на вопросы.
3. Расскажите о своей любимой книге.

**Билет № 19**

1. Прочитайте предложения, правильно вставив окончания в выделенных словах.

В классе много *мальчик…* .

У нас мало новых книг… и *журнал…* .

В городе много красивых улиц… , *театр…* и *музе…* .

2. Прочитайте вслух отрывок из рассказа Н.Носова «Фантазёры» (часть 2). Ответьте на вопросы к тексту.
3. Расскажите о погоде весной.

**Билет № 20**

1. Подберите антонимы к данным словам.

Маленький
Новый
Умный
Весёлый
Громкий

2. Прочитайте вслух отрывок из сказки Г.Х.Андерсена «Дюймовочка» (часть 2). Ответьте на вопросы к тексту.
3. Прочитайте наизусть любимое стихотворение.

**Билет № 21**

1. Расскажите, что вы будете делать завтра (весной, на зимних каникулах).
2. Прочитайте вслух отрывок из рассказа Б.Житкова «Кружечка под ёлочкой» Ответьте на вопросы к тексту.
3. Расскажите о своих учителях.

**Билет № 22**

1. Напишите, что вы делаете на уроках в школе.
2. Прочитайте вслух отрывок из сказки Г.Х.Андерсена «Дюймовочка» (часть 3). Ответьте на вопросы к тексту.
3. Расскажите о любимых кинофильмах.

**Билет № 23**

1. Дополните предложения.

В магазине мы купили … и … .
На улице ребята встретили … и … .
Мама положила на стол … и … .

2. Прочитайте вслух отрывок из сказки Д.Н.Мамина-Сибиряка «Серая Шейка» (часть 3). Ответьте на вопросы к тексту.
3. Расскажите какой вид спорта вам нравится.

**Билет № 24**

1. Ответьте на вопросы.

Сколько книг вы прочитали за год?
Сколько у вас друзей?
Сколько времени вы готовите уроки?

2. Прочитайте вслух отрывок из сказки Г.Х.Андерсена «Дюймовочка» (часть 4). Ответьте на вопросы к тексту.
3. Расскажите о своей любимой телепередаче.

**Билет № 25**

1. Дополните предложения.

Мне нравится заниматься … .
Феруза хочет стать …. .
Мы очень интересуемся … и … .

2. Прочитайте вслух отрывок из сказки Д.Н. Мамина - Сибиряка «Серая Шейка» (часть 2).Ответьте на вопросы к тексту.
3. Прочитайте наизусть своё любимое стихотворение.

# Adabiyot

5- sinf

Davlat ta’lim standartida 5-sinf o‘quvchilari o‘quv dasturida berilgan ijodkorlar tarjimai holi, ularning asarlari, shuningdek, xalq og‘zaki ijodi namunalari va boshlang‘ich nazariy ma’lumotlar haqida bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishishi belgilangan. Xususan, matnni ifodali o‘qish, matn mazmunini o‘z so‘zlari bilan bayon eta olish, asar qahramonlari hatti-harakatlariga mustaqil munosabat bildirish ko‘nikmasini egallashi, badiiy asarda tasvirlangan asosiy voqeani, lirik she’rlarda ifodalangan his-hayajonni his etish, maqol, topishmoq haqida dastlabki nazariy tushunchalarni bilish, dasturda tavsiya etilgan 6-7 she’riy asarni yodlash malakasiga ega bo‘lishi kerak.

Adabiyot fanidan 5-sinfda bosqichli nazorat imtihoni og‘zaki tarzda o‘tkaziladi.

Bosqichli nazorat imtihonining birinchi savoli yil davomida o‘rganilgan yozuvchi, shoirlarning hayoti va ijodi,badiiy asarlari yoki nazariy ma’lumotlar doirasida tuzildi. Ikkinchi savol o‘rganilgan she’riy parchalardan yod olish, mustaqil o‘qigan asarlari mazmuniga oid savollar va nazariy ma’lumotlardan tarkib topdi. O‘quvchi o‘zi tanlagan bilet bo‘yicha savol va topshiriqlarga javob beradi.

**O‘quvchilarning imtihondagi javoblari quyidagi me’yorlar asosida baholanadi:**

**1**. Ijodkorlarning hayoti, ijodi va asarlari mazmunini to‘liq tushungan bo‘lsa, yoki nazariy ma’lumotlarni bilsa, asar qahramonlariga to‘g‘ri tasnif berolsa, fikrini mustaqil va ijodiy bayon etishda adabiy til me’yorlariga rioya qilsa, she’riy matnni talaffuz me’yorlariga( urg‘u va mantiq qoidalariga) amal qilgan holda aytsa , mavzu doirasida o‘qituvchi tomonidan berilgan savollarga to‘g‘ri javob bersa – **5 ball** qo‘yiladi.

**2.** Ijodkorlarning hayoti, ijodi va asarlari mazmunini tushungan bo‘lsa, asar qahramonlariga tasnif berolsa, fukrlarini mustaqil bayon etishda adabiy til me’yorlariga rioya qilsa, nazariy ma’lumotlarga qisman javob bersa , she’riy matnni aytishda talaffuz me’yorlari biroz buzilsa, mavzu doirasida o‘qituvchi tomonidan berilgan savollarga qisman to‘g‘ri javob bersa – **4 ball** qo‘yiladi.

**3**. Ijodkorlarning hayoti, ijodi va asarlarini to‘liq o‘qimaganligi sezilsa, asar va uning qahramonlariga munosabat bildirshda mustaqil fikrlash malakasi, nutq ravonligi yetishmasa, nazariy ma’lumotlarga qisman javob bersa, she’riy matnni aytishda talaffuz me’yorlari buzilsa , mavzu doirasida o‘qituvchi tomonidan berilgan savollarga qisman javob bersa
– **3 ball** qo‘yiladi.

**4.** Ijodkorlarning hayoti, ijodi va asar haqida umumiy ma'lumotnigina bilsa, asar va uning qahramonlariga munosabat bildirolmasa, nazariy ma'lumotlar berishda fukrlarini mustaqil bayon etolmasa, she'riy matnni qisman talaffuz me'yorlariga rioya etmagan holda aytsa, mavzu doirasida o'qituvchi tomonidan berilgan savollarga qisman javob bersa – **2 ball** qo'yiladi.

**5.** Ijodkorlarning hayoti, ijodi va asar haqida tushunchaga ega bo'lmasa , asar qahramonlariga munosabat bildirolmasa, nazariy ma'lumotlar berishda fukrlarini mustaqil, ijodiy bayon etolmasa, she'rni yoddan ifodali aytolmasa, mavzu doirasida o'qituvchi tomonidan berilgan savollarga to'g'ri javob bera olmasa – **1 ball** qo'yiladi.

***Eslatma:***

Berilgan javoblar ko'rsatilgan me'yorlardan biroz farq qilsa ham, yuqoridagi mezonlarga asoslanilgan holda baholanadi.

**1-bilet**

1.Maqol deganda nimani tushunasiz? Maqol va topishmoq o'rtasidagi o'xshash va farqli jihatlarni tushuntiring.

2.Boburning "Kim yor anga ilm tolibi..." ruboyisini yod ayting.

**2-bilet**

1. Hans Xristian Andersen haqida nimalarni bilasiz? "Bulbul" ertagi qahramonlariga tavsif bering.
2. Erkin Vohidovning "Nido" dostonidan parcha yod ayting.

.

**3-bilet**

1. M.Shayxzodaning hayoti va ijodi haqida nimalarni bilasiz? "Iskandar Zulqarnayn" ertak-dostonidagi Iskandar, Sartarosh va Cho'pon obrazlari haqida gapiring.

2.Hamid Olimjonning"Oygul bilan Baxtiyor" dostonidan parcha yod ayting.

.

**4-bilet**

1. Imom Buxoriy kim bo'lgan? Ota-ona haqidagi hadislaridan ayting va tahlil qiling.
2. Erkin Vohidovning "Nido" dostonidan parcha yod ayting.

**5-bilet**

1.Sa'diy Sheroziyning hayoti va ijodi haqida so'zlang.
Uning "Guliston"asarida insoniy sifatlar qanday tasvirlangan?

2.Usmon Nosirning "Yur, tog'larga chiqaylik" she'rini ifodali yod ayting.

**6-bilet**

1.Jonatan Sviftning "Gulliverning sayohatlari" asari qahramonlari tabiatidagi illatlari qanday berilganligini so'zlab bering?

2.Darslikda berilgan do'stlik haqidagi maqollardan misollar keltiring va izohlang.

**7-bilet**

1. Ezop masallarining bugungi kundagi ahamiyati nimada? “Kiyik bilan tokzor”, “Eshak bilan baqalar” masallari misolida tushuntiring.

2.Abdulla Oripovning “O‘zbekiston” she’ridan parcha yod ayting.

**8- bilet**

1. Abdulla Avloniyning hayoti va ijodi haqida gapiring.
Uning “Vatanni suymak”, “Vatan” she’rlarida qanday tuyg‘ular ifoda qilingan?
2. Adabiyotning so‘z san’ati ekanligini misollar asosida tushuntiring .

**9-bilet**

1. “Susambil” **e**rtagidagi hayvonlarning hamjihat bo‘lib ish qilishi natijasi nimalarda ko‘rinadi?
2. Abdulla Avloniyning “Vatan” she’ridan parcha yod ayting.

**10-bilet**

1. Boburning hayoti va ijodi haqida ma’lumot bering. Uning “Har kimki vafo qilsa...” ruboiusini qanday izohlaysiz?
2. Hamid Olimjonning ”Oygul bilan Baxtiyor”dostonidan parcha yod ayting.

**11-bilet**

1. Mirtemirning hayoti va ijodi haqida nimalarni bilasiz? Uning tabiat hodisalari va manzaralari aks etgan “Bulut”, “Shudring”, “Qishlog‘im”she’rlarini qanday izohlaysiz?
2. Asqad Muxtorning “Hafta” she’rini ifodali yod ayting.

**12-bilet**

1.Mirkarim Osimning “Zulmat ichra nur” qissasidagi “Yoshlik ayyomining ilk bahori” ,“Yazd cho‘li” deb nomlangan lavhalarida Alisherning bolaligi, uning nihoyatda zukkoligi qanday tasvirlangan ?
2.Abdulla Oripovning “O‘zbekiston” she’ridan parcha yod ayting.

**13-bilet**

1. G‘afur G‘ulomning hayoti va ijodi haqida ma’lumot bering. “Mening o‘g‘rigina bolam” hikoyasidagi bola, kampir, o‘g‘ri obrazlariga qanday fikr bildirasiz?
2. M.Shayxzodaning “Iskandar Zulqarnayn” ertak-dostonidan parcha yod ayting.

**14-bilet**

1. Alisher Navoiyning hayoti va ijodi haqida so‘zlab bering.
2. Boburning “Har kimki vafo qilsa...” ruboiysini yod ayting.

**15-bilet**

1. Muqimiyning “Sayohatnoma” asari qaysi yo‘nalishda yozilgan? Undagi obrazlar tasvirini tushuntiring.

2. Mirtemirning “Bulut” she’rini ifodali yod  ayting.

**16-bilet**

1. Abdulla Qodiriyning “Uloqda” hikoyasida oʻzbek bolalariga xos qanday jihatlar tasvirlangan? Hikoyadagi  voqealarga tayanib tushuntiring.
2.    Boburning  “Tole yoʻqi jonimgʻa...”  ruboiysini yod  ayting.

**17-bilet**

1.Oybekning hayoti va ijodi haqida nimalarni bilasiz? Uning “Bolaning koʻngli podsho” hikoyasidagi  bola va bobo obrazlari haqida gapiring.
2.  Usmon Nosirning “Bolaligimga” she’rini yoddan ifodali ayting.

**18-bilet**

1.Asqad Muxtorning  “Hafta”, “Poʻlatjon yuz tup koʻchat ekmoqchi ” she’rlari mazmunini tushuntiring.
2. Bobur “Kim yor anga ilm tolibi...” ruboiysini yod ayting.

**19-bilet**

1.  Boburning hayoti va ijodi, ruboyilari  haqida  nimalarni bilasiz?
2. Abdulla Oripov “Oʻzbekiston” she’ridan parcha yod ayting.

**20-bilet**

1. Usmon Nosirning hayoti va uning “Yoʻlchi”, “Yoshlik”  she’rlarida darddoshlik tuygʻulari  qanday  tasvirlangan?
2. Sinfdan tashqari qanday badiiy asar oʻqidingiz va uning mazmuni haqida soʻzlab bering .

**21-bilet**

1. Topishmoqlar xalq ogʻzaki ijodining oʻziga xos janri ekanligini misollar asosida sharhlang. Topishmoq va maqol oʻrtasida qanday oʻxshashlik  va farqli jihatlar bor?
2. Mirtemirning “Qishlogʻim” she’rini  ifodali yod ayting.

**22-bilet**

1. Erkin Vohidovning “Nido” dostonida insoniyat boshiga  tushgan eng katta falokat–Ikkinchi jahon urushi keltirgan balolarning murgʻak oʻsmir taqdirida qoldirgan izlari qanday  tasvirlangan?
2. Abdulla Oripovning “Oʻzbekiston” she’ridan parcha yod ayting.

**23-bilet**

1**.** Sa’diy Sheroziyning hayoti va ijodi haqida bilasizmi? Uning“Guliston” asarida  tasvirlangan insoniy sifatlarni tushuntiring.
2.Usmon Nosirning “Yur, togʻlarga chiqaylik” she’rini  ifodali yod ayting.

**24- bilet**

1. Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostonida chin va yolgʻon  soʻzning

solishtirilishi, to‘g‘rilikning g‘olib kelishi, uning qaysi asarida berilgan? Asarni tahlil qiling.
2. Abdulla Avloniyning “Vatanni suymak” she’ridan parcha yod ayting.

**25-bilet**

1.Sent-Ekzyuperining “Kichkina shahzoda” ertak-qissasidagi Kichkina shahzoda obraziga qanday tavsif berasiz?
2. Muqimiy “Sayohatnoma” sidan parcha yod ayting.

**26-bilet**

1. Abdulla Oripovning “O‘zbekiston” she’rida ona yurt o‘tmishining g‘oyat ta’sirli voqealari qanday tasvirlangan? She’rni tahlil qiling.
2. Usmon Nosirning “Gulzor – chaman” she’rini ifodali yod ayting.

**27-bilet**

1.“Uch og‘a-ini botirlar” ertagidagi to‘ng‘ich, o‘rtancha va kenja botirlarning dovyurakligi qaysi voqealarda berilgan? Misollar keltirib tushuntiring.
2. Boburning “Ko‘ngli tilagan murodig‘a...” ruboyisini yod ayting.

.

**28-bilet**

1. Hamid Olimjonning “Oygul bilan Baxtiyor” dostonidagi asosiy qahramonlarning ezgulik va yovuzlik o‘rtasidagi kurashi qanday tasvirlangan?
2.Usmon Nosirning “Yur, tog‘larga chiqaylik” she’rini ifodali yod ayting.

**29-bilet**

1.Nodar Dumbadzening “Hellados” hikoyasi qahramonlari Yanguli, Jamol orasidagi munosabatlar, asardagi vatanparvarlik tuyg‘usini misollar asosida gapiring.
2. A.Avloniyning “Vatan” she’rni yod ayting.

**30-bilet**

1. O‘. Hoshimovning hayoti va ijodi haqida so‘zlab bering. “Dunyoning ishlari” qissasidan olingan “Gilam paypoq” va “Alla” boblarida ona allasining barcha uchun tushunarli ekanligi, onaning bolasiga fidoiyligi qanday tasvirlangan?
2. Darslikda berilgan topishmoqlardan misollar keltiring va ularni izohlang.

## CHET (INGLIZ, NEMIS VA FRANSUZ) TILI
## 6-SINF

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 6-sinf o‘quvchilari uchun chet tillardan bosqichli nazorat imtihonlari tinglab tushunish va og’zaki nutq ko‘nikmasini aniqlash yuzasidan o‘tkaziladi. Bosqichli nazorat imtihonlarini o‘tkazishdan

maqsad o‘quvchilarning chet til ta’limi bo‘yicha olgan bilim, ko‘nikma va malakalarini aniqlashdan iborat. Bosqichli nazorat imtihonlarini o‘tkazish o‘quv dasturlari asosida 2 bosqichda amalga oshirilib, 1-topshiriq tinglab tushunish bo‘ yicha 5 ta bilet, har bir biletda 1 tadan topshiriq, 2-topshiriq 25 ta biletdan iborat bo‘ lib, har bir biletda 1tadan topshiriq beriladi. Chet tillari chuqurlashtirib o‘qitiladigan sinflar va maktablar uchun maktab uslubiy birlashmasi kelishilgan holda qo‘shimcha uchinchi topshiriq beriladi.

***Birinchi topshiriq – audioresurs bo‘yicha tinglab tushunish.***

Sinf xonasida har bir partada 1 nafardan o‘quvchi joylashtirilib, tanlangan biletdagi mavzu yuzasidan 1 ta audiolavha eshittiriladi. O‘quvchilarning har biriga varaqlar berilib, audiolavhani tinglagan holda tushirib qoldirilgan so‘zlarni to‘ldirib yozishlari talab etiladi. Varaqlardagi bo‘sh qoldirilgan so‘zlar soni 5 tadan iboratbo‘ladi.Audiolavha 3 martagacha eshittirilishi mumkin. Ushbu topshiriq 5 ballik tizim asosida bo‘lib, to‘g‘ri yozilgan har bir so‘z 1 balldan baholanadi. Audiolavhalar o‘quvchilar egallashlari lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikmava malakalardan kelib chiqqan holda darsliklarning audio ilovasidan tanlanadi.

***Ikkinchi topshiriq – biletda ko‘rsatilgan mavzular yuzasidan suhbat.***

Bunda o‘quvchi mavzu yuzasidan o‘z fikrini chet(ingliz, nemis va fransuz) tilida erkin bayon etishi kerak. O‘quvchi tomonidan bildirilgan fikrlar grammatikva fonetik jihatdan to‘g‘ri bayon etilishi, nutqining ravonligi, mavzudan chetlashmaganligi va bildirilgan fikrlarning mantiqan bir-biri bilan bog‘liqligi hisobga olinadi. Fikrlar bayon etilayotganda, so‘z birikmalarining noto‘g‘ri ifodalanishi, grammatik va fonetik qoidalarga rioya qilmaslik hollari birgapning o‘zida ikki va undan ortiq kuzatilsa, o‘sha gap hisobga olinmaydi. O‘quvchi mavzuni yoritib bera olmasa, o‘qituvchi o‘quvchiga mavzu yuzasidan 3 ta savol berishi mumkin. Har bir berilgan savolga javob 5 ballik tizim asosida baholanadi. Masalan: 1-savolga 3 ball, 2-savolga 5 ball, 3-savolga 4 ball qo‘yilsa, baholar umumlashtirilib, o‘rtacha ball chiqariladi. 3+5+4=12:3=4 ball. O‘quvchilarni baholashda ball ular egallashlari lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikmava malakalardan kelib chiqib belgilanadi.

**2-topshiriq bo‘yicha baholash mezoni**

| Baholash mezoni | Ball |
|---|---|
| Berilgan mavzuni to‘liq og‘zaki bayon qila olsa, mavzu yuzasidan fikr bildirsa va uni asoslay olsa, to‘g‘ri talaffuz va intonatsiya bilan gapirsa, berilgan mavzuga doir savollarga to‘liq javob bera olsa. | 5 |
| Berilgan mavzuni qiyinchilik bilan og‘zaki bayon qila olsa, fikr tor bildirsa, talaffuz va intonatsiyada ozgina kamchilikka yo‘l qo‘ysa, berilgan mavzuga doir savollarga qiyinchilik bilan javob bera olsa. | 4 |
| Berilgan mavzuni qisman og‘zaki bayon qila olsa, fikr bildira olmasa, to‘g‘ri talaffuz va intonatsiyaga rioya qilmasa, berilgan mavzuga doir savollarga qisman javob bera olsa. | 3 |
| Berilgan mavzuni tushunarsiz tarzda bayon qila olsa, fikr bildira olmasa, to‘g‘ri talaffuz va intonatsiyaga rioya qilmasa, berilgan mavzu | 2 |

| | |
|---|---|
| mazmuniga doir savollarga tushunarsiz tarzda javob bersa. | |
| Berilgan mavzuni bir-biri bilan bog‘lanmagan jumlalar bilan og‘zaki bayon qila olsa, fikr bildira olmasa, to‘g‘ri talaffuz va intonatsiyaga rioya qilmasa, matn mazmuniga doir savollarga javob bera olmasa. | 1 |

## 1-TOPSHIRIQ

### 1-BILET

1. “Yil fasllari”mavzusida audiolavha.

### 2-BILET

1. “Tili o‘rganilayotgan mamlakat” mavzusida audiolavha.

### 3-BILET

1. “Mening kunim” mavzusida audiolavha.

### 4-BILET

1. “Do‘konda” mavzusida audiolavha.

### 5-BILET

1. “O‘zim haqimda” mavzusida audiolavha.

## 2-TOPSHIRIQ

### 1-BILET

1. “Xarid”mavzusida suhbat.

### 2-BILET

1.“Sevimli mashg‘ulotim” mavzusida suhbat.

### 3-BILET

1. “Tavallud kun!” mavzusida suhbat.

### 4-BILET

1. “Mening uyim” mavzusida suhbat.

### 5-BILET

1. “Diqqatga sazovor shaharlar” mavzusida suhbat.

### 6-BILET

1. “Do‘konda” mavzusida suhbat.

### 7-BILET

1. “Mening sevimli kitobim” mavzusida suhbat.

### 8-BILET

1. “Bayram taomlari” mavzusida suhbat.

### 9-BILET

1.“Milliy bayramalar” mavzusida suhbat.

### 10-BILET

1.“Oila davrasida” mavzusida suhbat.

### 11-BILET

1. “Mening bo‘sh vaqtim” mavzusida suhbat.

### 12-BILET

1. “Men yoqtirgan fasl!” mavzusida suhbat.

### 13-BILET

1. “Mening ta’tilim” mavzusida suhbat .

**14-BILET**

1. “Mening kunim” mavzusida suhbat.

**15-BILET**

1. “Yovvoyi hayvonlar” mavzusida suhbat.

**16-BILET**

1. “Tili o‘rganilayotgan mamlakat” mavzusida suhbat.

**17-BILET**

1.“O‘zi yashayotgan shahar (qishloq)” mavzusida suhbat.

**18-BILET**

1. “Onamning tug’ilgan kuni” mavzusida suhbat.

**19-BILET**

1. “Mening do‘stim” mavzusida suhbat.

**20-BILET**

1. “Uy hayvonlari” mavzusida suhbat.

**21 BILET**

1. “Chet tili xonamiz” mavzusida suhbat.

**22-BILET**

1. “Mening maktabim” mavzusida suhbat.

**23-BILET**

1. “O‘zbekiston shaharlari” mavzusida suhbat.

**24-BILET**

1. “Mening oilam” mavzusida suhbat.

**25-BILET**

1. “O‘zbekistonning diqqatga sazovor joylari” mavzusida suhbat.

## TARIX 6-SINF

### Tushuntirish xati

“Tarix” fanidan bosqichli attestatsiya imtihonlari uchun taklif etilayotgan mazkur topshiriqlar umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standartlari asosida tayyorlangan. Ushbu topshiriqlar biletlarda aks ettirilgan bo‘lib, har bir biletda to‘rt yo‘nalishdagi mavzu asosida to‘rttadan savol beriladi: Topshiriqlar quyidagi mazmunda tuziladi.

1. Qadimgi dunyo tarixi fanida o‘ rganilgan biror-bir joy nomi bilan bog‘liq bo‘ladi.
2. Qadimgi dunyo tarixi fanida o‘ rganilgan tarixiy me’moriy inshootlardan biri beriladi.
3. Qadimgi dunyo tarixi fanida o‘ rganilgan atamalarga izoh beriladi.

**Izoh:** har bir yo‘nalish bo‘yicha ballar yaxlitlanib (Bunda yaxlitlangan ball 4,5 dan past bo‘lsa – 4 baho, yuqori bo‘lsa – 5 baho. Masalan: 5+4+5+1=15:3=5 yaxlitlansa 5 baho, 4+4+5+1=14:3=4,6 yaxlitlansa 4 baho), yakuniy attestatsiya imtihoni sinovining yakuniy bali qo‘yiladi.

O‘quvchilarga bilet olganlaridan keyin tayyorgarlik ko‘rishlari uchun 15 daqiqa vaqt beriladi.

Imtihon savollariga maktab metodbirlashmasi qarori bilan tuzatishlar, qo‘shimchalar va takliflar kiritilishi mumkin. Imtihon topshirish jarayonida o‘quvchi o‘z fikrini faqat darslik materiallari asosida emas, balki boshqa manbalarga tayangan holda ham bayon qilishi mumkin. Shuningdek, tarix fani chuqurlashtirib o‘qitiladigan sinf va maktablarda imtihon biletlari 4 ta savoldan iborat bo‘ladi. Tarix fani chuqurlashtirib o‘qitiladigan sinf va maktablarning imtihondagi to‘ rtinchi savollari o‘qituvchi tomonidan tuzilib, maktab metod birlashmasi tomonidan tasdiqlanadi. To‘ rtinchi savol yuzasidan baholash mezoni ham maktab metod birlashmasi tomonidan shakllantiriladi.

**Birinchi savol bo‘yicha o‘quvchilarning bilimlari quyidagi mezonlar asosida baholanadi:**

| | | |
|---|---|---|
| 1. | Joy nomining ma’nosini ayta olishi | 1 ball |
| 2. | Qayerda joylashganligini haritadan ko‘rsata olishi | 1 ball |
| 3. | Hududning qaysi davrlarda shu nom bilan atalganini bilishi | 1 ball |
| 4. | Shu hudud bilan bog‘liq biror tarixiy voqeadan misol keltirishi | 1 ball |
| 5. | Joyning geografik makoni haqida ma’lumot bera olishi | 1 ball |
| | **Jami:** | **5 ball** |

**Ikkinchi savol bo‘yicha o‘quvchilarning bilimlari quyidagi mezonlar asosida baholanadi:**

| | | |
|---|---|---|
| 1. | Tarixiy voqelarning sanasini to‘g‘ri ayta oladi. | 1 ball |
| 2. | Tarixiy voqea bo‘ yicha to‘ liq ma’lumot bera oladi. | 1 ball |
| 3. | Tarixiy voqea bo‘ yicha qo‘ shimcha ma’lumotlarga ega. | 1 ball |
| 4. | Voqea, hodisalarga nisbatan o‘ zining munosabatini bildira oladi. | 1 ball |
| 5. | Voqeaning qadimgi dunyo tarixidagi ahamiyatini tushuntira oladi. | 1 ball |
| | **Jami:** | **5 ball** |

**Uchinchi savol bo‘yicha o‘quvchilarning bilimlari quyidagi mezonlar asosida baholanadi:**

| | | |
|---|---|---|
| 1. | Tarixiy atamaning lug‘ aviy ma’nosini to‘ g‘ ri aytish | 1 ball |
| 2. | Atamaga to‘ g‘ ri izoh bera olishi | 1 ball |
| 3. | Tarixiy atamani izohlashda qo‘ shimcha ma’lumotlardan foydalanish | 1 ball |
| 4. | Atama qo‘ llanilgan tarixiy voqealaridan misollar keltira olishi | 1 ball |
| 5. | Atamaning qaysi tildan kelib chiqqanligini bilishi | 1 ball |
| | **Jami:** | **5 ball** |

**1-Bilet**
1. Misrdagi yangi podsholik haqida so‘ zlab bering.
2. Afina hukmdori Drakont qonunlari mohiyati haqida tushuncha bering.
3. “Ieroglif” atamasi to‘ g‘ risida ma’lumot bering.

**2-Bilet**
1. Sparta davlati haqida so‘zlab bering.
2. Dovon va Xitoy urushi sabablari.
3. “Satrap” atamasi to‘g‘risida ma’lumot bering.

**3-Bilet**
1. Yunon-Baqtriya podsholigi haqida so‘zlab bering.
2. Makedoniyalik Aleksandrning O’rta Osiyoga yurishi haqida so‘zlab bering.
3. “Fir’avn” atamasi to‘ g‘ risida ma’lumot bering.

**4-Bilet**
1. Kushon podsholigi haqida so‘zlab bering.
2. Shiroq jasoratiga baho bering.
3. “Konsul” atamasi to‘g‘risida ma’lumot bering.

**5-Bilet**
1. Ahamoniylar davlati haqida so‘zlab bering.
2. Yunon-Makedoniya bosqinchilariga qarshi Spitamen harakati haqida ma’lumot bering.
3. “Strateg” atamasi to‘g‘risida ma’lumot bering.

**6-Bilet**
1. Salavkiylar davlati haqida so‘zlab bering.
2. Qadimgi Misrda piramidalar qurilishi haqida ma’lumot bering.
3. “Senat” atamasi to‘ g‘ risida ma’lumot bering.

**7-Bilet**
1. Mesopatamiyadagi qadimgi davlatlar haqida so‘zlab bering.
2. Doro I islohatlari haqida gapirib bering.
3. “Respublika” atamasi to‘g‘risida ma’lumot bering.

**8-Bilet**
1. Urartu davlati haqida so‘zlab bering.
2. G’arbiy Rim imperiyasining qulashi to‘g‘risida ma’lumot bering.
3. “Demokratiya”atamasi qanday ma’noni bildiradi.

**9-Bilet**
1. Mil.avv. II ming yillikdagi Bobil podsholigi haqida so‘zlab bering.
2. O‘rta Osiyodagi bronza davri davlatlari to‘g‘risida ma’lumot bering.
3. “Forum” atamasi qanday ma’noni bildiradi.

**10-Bilet**
1. Mil.avv. III milodiy II asrlarda qadimgi Xitoy to‘g‘risida ma’lumot bering.
2. Solon islohotlari mohiyati haqida so‘zlab bering.
3.“Mixxat” atamasi to‘g‘risida ma’lumot bering.

**11-Bilet**
1. Rim respublikasi qanday tashkil etilganligi haqida so‘zlab bering.
2. Oktavian Avgustning Rimni boshqaruvi faoliyatiga baho bering.
3. “Falanga” atamasi to‘g‘risida ma’lumot bering.

**12-bilet**
1. Mil.avv.VIII-VI asrlarda qadimgi Italiya to‘g‘risida ma’lumot bering.
2. Shumer va Akkad davlati podshosi Sargon I ning boshqaruvi faoliyatiga baho bering.
3. **“**Kandidat” atamasi qanday ma’noni bildiradi.

**13-Bilet**
1. Mil.avv. II ming yillikda qadimgi Afina davlati haqida so‘zlab bering.
2. Afina davlatida faylasufi Sokratning faoliyatiga baho bering.
3.“Pedagog” atamasi qanday ma’noni bildiradi.

**14-Bilet**
**1.** Mil.avv.VII-VI asrlardagi Yangi Bobil podsholigi haqida so‘zlab bering.
**2.** Dunyo ilmi rivojlanishiga hissa qo‘ shgan Gresiya faylasuflari Geraklit, Demokrit va Deogen faoliyati to‘g‘risida ma’lumot bering.
3. “Animizm” atamasi qanday ma’noni bildiradi.

**15-Bilet**
1. Mil.avv. IV-I asrlardagi qadimgi Xorazm to‘g‘risida ma’lumot bering .
2. Bobil hukmdori Xamurapi faoliyatiga baho bering.
3. “Xronologiya” atamasi qanday ma’noni bildiradi.

**16-Bilet**
1. O‘rta Osiyodagi bronza asriga oid dehqonchilik manzilgohlari to‘g‘risida ma’lumot bering.
2. Sidxartxa Gautamaning “Budda” dini yaratilishida qo‘shgan hissasi.

3. “Goplit” atamasi qanday ma’noni bildiradi

**17-Bilet**

1. Mil.avv.III-II asrlarda qadimgi Yunon-Baqtriya davlati to‘g‘risida ma’lumot bering.
2. Qadimgi Xitoy davlatida Sin Shixuandining boshqaruvi faoliyatiga baho bering.
3. “Legion” atamasi qanday ma’noni bildiradi.

**18-Bilet**

1. Mil. avv. I ming yillikda qadimgi Xindiston haqida so‘zlab bering.
2. Qadimgi Olimpiya o’yinlari nima maqsadda o‘ tkazilar edi.
3. “Patriarxat” atamasi qanday ma’noni bildiradi.

**19-Bilet**

1. Mil. avv. II ming yillikda qadimgi Finikiya davlati haqida so‘zlab bering.
2. Rim va Karfagen o‘ rtasidagi “Pun” urushi sabablari haqida ma’lumot bering.
3. “Polis” atamasi qanday ma’noni bildiradi.

**20-Bilet**

1. Mil. avv. XI asrda qadimgi Isroil podsholigi haqida so‘zlab bering.
2. Qadimgi Yunoniston ta’lim tizimi hususiyatlari haqida ma’lumot bering.
3. “Ritorika” atamasi qanday ma’noni bildiradi.

**21-Bilet**

1. Mil. avv. III asrlarda qadimgi Qang‘  davlati haqida so‘ zlab bering.
2. To’maris va Kir II o‘ rtasidagi kurash haqida ma’lumot bering.
3. “Agora” atamasi qanday ma’noni bildiradi.

**22-Bilet**

1. Mil. avv. III milodiy I asrlardagi qadimgi Dovon davlati haqida so‘zlab bering.
2. Afina hukmdori Miltiadaning Marafon jangidagi roliga baho bering.
3. “Mozaika” atamasi tushunchasini ayting.

**23-Bilet**

1. Buyuk ipak yo‘li haqida so‘zlab bering.
2. Bobil podshosi Hammurapi qonunlari mohiyati nimada?
3. “Arxeologiya” atamasi to‘g‘risida ma’lumot bering.

**24-Bilet**

1. Mil. avv. III-II asrlarda qadimgi Karfagen davlati haqida so‘zlab bering.
2. Afina davlati hukmdori Periklning faoliyatiga baho bering.
3. “Etnografiya”atamasito‘g‘risida ma’lumot bering.

**25-Bilet**

1. Qadimgi Baqtriya davlati haqida so‘zlab bering.
2. Sparta hukmdori Leonidning Fermopol darasidagi janglariga baho bering.
3. “Numizmatika” atamasi to‘g‘risida ma’lumot bering.

**26-Bilet**

1. Mil. avv. VII-VI asrlarda qadimgi Xorazm haqida so‘zlab bering.
2. “Zoastrizm” dinining mazmun-mohiyati.
3. “Sarkofag” atamasi to‘g‘risida ma’lumot bering.

**27-Bilet**

1. Mil. avv. III asrda Makedoniya tarkibidagi qadimgi Gresiya haqida ma’lumot bering
2. Shiroq jasoratiga baho bering.
3. “Sfinks” atamasi to‘g‘risida ma’lumot bering.

**28-Bilet**

1. Mil.avv. XX asrlardan VI asrgacha qadimgi Ossuriya davlati haqida so‘zlab bering.
2. Kushon davlati yozuvlari o‘ziga xos hususiyatlari to‘g‘risida nimalarni bilasiz?
3. “Aristokratiya” atamasi to‘g‘risida ma’lumot bering.

**29-Bilet**

1. Qadimgi Hindistondagi Mauriya davlati haqida so‘zlab bering.
2. Qadimgi Yunonistonning Makedoniya tomonidan bosib olinishi sabablari to‘g‘risida nimalarni bilasiz ?
3. “Patritsii” atamasi qanday ma’noni bildiradi.

**30-Bilet**

1. Mil.avv. II ming yillikda qadimgi Xitoydagi Shan davlati haqida so‘zlab bering.
2. Qadimgi Rim madaniyati hususiyatlari to‘g‘risida nimalarni bilasiz?
3. “Fetishizm” atamasi to‘g‘risida ma’lumot bering.

## “Botanika” fanidan umumta’lim maktablarining 6-sinflari uchun bosqichli nazorat ishlarini o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar.

### SO‘Z BOSHI

“Botanika” fani umumta’lim maktablarining 6-sinfida tugatiladi. O‘quvchilar botanika kursidan ma’lum bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishlari talab etiladi.

Masalan:
-botanika fani mazmunida beriladigan asosiy biologik qonunlar va nazariyalarni bilish;
-o‘simlikning ildizi, poyasi, bargi, vegetativ ko‘payishi, guli, mevasi va urug‘lari, o‘simlik organlarining atrof-muhit bilan bog‘liqligi, o‘simliklar sistemasi, o‘simliklarning asosiy bo‘limlari, o‘simliklar olamining rivojlanishi, o‘simliklar qatlami, manzarali o‘simliklar haqida bilimga ega bo‘lish;
-tur, turkum, oila, sinf, bo‘lim to‘g‘risidagi asosiy sistematik birliklar tushunchalarini bilish;
-o‘simliklarga nisbatan ehtiyotkorona munosobatda bo‘lishning zarurligini bilish va unga amal qila olish;
-O‘zbekistonda botanika fanining rivojlanish tarixini bilish;
-botanikaga oid bilimlardan turmushda va qishloq xo‘jaligi ishlarida foydalana olish.

Botanika fanidan bosqichli nazorat og‘zaki so‘rov shaklida o‘tkaziladi. Har bir o‘quvchiga 3 tadan savol beriladi. Savollarning 2 tasi nazariy, 1 tasi amaliy mashg‘ulotga oid bo‘ladi. Har bir berilgan savolga javob 5 ballik tizim asosida baholanadi. Baholar umumlashtirilib o‘rtacha baho chiqariladi.
Masalan: 4+5+3=12:3=4

O‘quvchilarni baholashda ball ular egallashlari lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalardan kelib chiqib belgilanadi. Masalan: “Hujayra va uning tarkibiy qismlari” mavzusida o‘quvchilar quyidagi bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishlari lozim:
-o‘simliklarni hujayralardan tuzilganligini bilish;
-hujayra qanday tarkibiy qismlardan iboratligini bilish;
-hujayra qobig‘ining tuzilishi va vazifasini tushuntira olish;
-sitoplazmaning o‘ziga xos xususiyatlarini bilish;
-mag‘izning tuzilishi va vazifasini tushuntira olish;
-plastidalarning tuzilishi va xillarini bilish;
-vakuol va uning vazifasini bilish.

**Nazariy savollarga berilgan javoblarni baholash mezoni.**

| № | Baholash mezoni | Baho |
|---|---|---|
| 1 | Savollar mazmunan to‘la ochib berilsa, tushunchalar to‘liq va aniq yoritilsa. | 5 |
| 2 | Javoblar asosan to‘g‘ri, lekin izchillik buzilgan, qonuniyatlar va nazariyalar tavsifida qisman noaniqliklar bo‘lsa. | 4 |
| 3 | Javoblar qisman to‘g‘ri, tushunchalarni izohlashda bir qancha xatoliklarga yo‘l qo‘yilgan bo‘lsa. | 3 |
| 4 | Javoblar to‘g‘ri xulosalanmagan, fikrlar chalkash, tushunchalarda xatolar ko‘p. | 2 |
| 5 | Tushunchalar noto‘g‘ri talqin etilgan, javoblar xato bo‘lsa. | 1 |

**AMALIY ISH VA LABORATORIYA MASHG‘ULOTLARINI**

## BAHOLASH MEZONI.

| № | Baholash mezoni | Baho |
|---|---|---|
| 1 | Laboratoriya ishini bajarish ketma-ketligiga rioya etilgan holda to‘g‘ri va to‘liq bajarilgan, rasm va jadvallar to‘g‘ri ifodalangan, to‘g‘ri xulosalangan bo‘lsa. | 5 |
| 2 | Ishni bajarish ketma-ketligiga rioya etilgan. Tajribalar to‘liq bajarilgan, lekin natijalarni ifodalashda kichik xatoliklarga yo‘l qo‘yilgan bo‘lsa. | 4 |
| 3 | Ishni bajarish ketma-ketligiga to‘liq rioya etilmagan. Ish qisman to‘g‘ri bajarilgan, lekin natijalar rasm va jadvallarda ifodalanmagan bo‘lsa. | 3 |
| 4 | Jihozlar to‘g‘ri tanlangan, lekin ishni bajarish ketma-ketligiga rioya etilmagan, ishni bajarishga to‘g‘ri yondashilmagan bo‘lsa. | 2 |
| 5 | Jihozlar to‘g‘ri tanlanmagan, ish noto‘g‘ri bajarilgan. | 1 |

Amaliy ishlar va laboratoriya mashg‘ulotlarini o‘tkazish uchun zarur laboratoriya jihozlari, preparatlar va boshqa materiallar o‘qituvchi tomonidan oldindan tayyorlanadi.

### 1-BILET

1. Botanika fani qanday bo‘limlardan iborat?
2. Ra’nodoshlar oilasiga qanday o‘simliklar kiradi?
3. Maktab hovlisida o‘suvchi o‘simliklarning gullari misolida gul tuzilishini o‘rganish.

### 2-BILET

1. Kuz faslida o‘simliklar hayotida ro‘y beradigan o‘zgarishlar.
2. To‘pgullar.
3. Mikroskop bilan ishlash qoidalari.

### 3-BILET

1. Qanday iste’mol qilinadigan o‘simliklar haqida bilasiz?
2. Sho‘radoshlar oilasiga kiruvchi o‘simliklarning gul tuzilishi qanday?
3. Loviya va bug‘doy o‘simligi urug‘larini tuzilishini o‘rganish.

### 4-BILET

1. Qanday yovvoyi yem-xashak o‘simliklari haqida bulasiz?
2. Gulxayridoshlar oilasiga mansub o‘simliklarning inson hayotidagi ahamiyati nimalardan iborat?
3. Urug‘ tarkibidagi moddalarni aniqlash.

### 5-BILET

1. O‘zbekiston Respublikasi “Qizil kitob”iga kiritilgan qanday o‘simliklar haqida ma’lumotga egasiz?

2. Burchoqdoshlar oilasiga mansub o‘simliklarni tabiatdagi ahamiyati nimalardan iborat?
3. Urug‘larning nafas olishini tajribada kuzatish.

**6-BILET**

1. O‘simlik to‘qimalari.
2. Mevalarning tuzilishi.
3. Barg epidermisidan vaqtinchalik preparat tayyorlash va uni mikroskopda kuzatish.

**7-BILET**

1. Kuzda o‘simliklar hayotida ro‘y beradigan o‘zgarishlar haqida qanday ma’lumotga egasiz?
2. O‘zbekistonda tokdoshlar oilasining qanday turkumlariga mansub o‘simliklar o‘sadi?
3. Mag‘or zamburug‘idan preparat tayyorlash va uni mikroskopda kuzatish.

**8-BILET**

1. Ildizning ichki tuzilishi.
2. Ikki urug‘pallali o‘simliklarning urug‘I tuzilishi.
3. Barg ichki tuzilishining mikroskopik ko‘rinishi.

**9-BILET**

1. Hujayraning o‘sishi va ko‘payishi qanday amalga oshadi?
2. Ziradoshlar oilasiga mansub osimliklarning o‘ziga xos xususiyatlari nimadan iborat?
3. Atrofimizda o‘sib turgan o‘simliklardan yoki gerbariylardan foydalanib yopiq urug‘li va ochiq urug‘li o‘simliklarni o‘zaro taqqoslash.

**10-BILET**

1. O‘simlik to‘qimalarining qanday turlari bor?
2. Qoqio‘tdoshlar oilasiga mansub o‘simliklarning gul tuzilishi qanday?
3. Olma, namatak, qulupnay o‘simliklarini olib ularning barglaridagi o‘xshashlik va tafovutlarni aniqlang.

**11-BILET**

1. Novda va kurtakning tuzilishi.
2. O‘simliklar sistematik birliklari.
3. Kurtak payvand usulini tushuntiring.

**12-BILET**

1. Ildizning tashqi va ichki tuzilishini tushuntirib bering.
2. Piyozdoshlar oilasiga mansub o‘simliklar haqida qanday ma’lumotga egasiz?

3. Burchoqdoshlar oilasiga kiruvchi mosh, yantoq, sebarga kabi o‘simliklarni gerbariylardan yoki yangi o‘simliklardan olingan na’munalarni o‘zaro taqqoslash.

**13-BILET**

1. Ildiz qanday nafas oladi?
2. Bug‘doydoshlar oilasi vakillarining poya va barg tuzilishi qanday?
3. Gerbariylardan foydalanib ziradoshlar oilasiga xos belgilarni aniqlang.

**14-BILET**

1. Poyalarning xilma-xilligi.
2. Kasallik paydo qiluvchi bakteriyalar.
3. Gerbariylardan foydalanib gul formulasini yozing.

**15-BILET**

1. Kurtakning tuzilishi va turlari haqida ma’lumot bering.
2. To‘pgullarning qanday turlari bor?
3. O‘sib turgan yoki saqlanayotgan gerbariylardan foydalanib, qirqbo‘g‘im, archa va namataklarni taqqoslab, ulardagi o‘xshashlik va tafovutlarni aniqlash.

**16-BILET**

1. Oddiy va murakkab barglar.
2. Qalpoqchali zamburug‘lar.
3. Gerbariylardan foydalanib archa va qarag‘ayni taqqoslang.

**17-BILET**

1. Poyaning ichki tuzilishini tushuntirib bering.
2. Meva qanday qismlardan iborat?
3. Maktab tajriba maydonida o‘suvchi o‘simliklarning barg shakllarini o‘rganish.

**18-BILET**

1. Poya nima hisobiga bo‘yiga o‘sadi?
2. Urug‘ning tuzilishini tushuntrib bering
3. Poyada moddalarning harakatini tajribada kuzatish.

**19-BILET**

1. Bargning ichki tuzilishi.
2. Lishayniklar haqida umumiy tushunchalar.
3. Gerbariylar va plakatlardan foydalanib to‘pgullarni tushuntiring.

**20-BILET**

1. Shakli o‘zgargan yer osti novdalarning qanday shakllari bor?
2. Bakteriyalarning tabiatdagi ahamiyati nimadan iborat?
3. Oldindan tayyorlangan loviya va bug‘doy maysalarini ildizini taqqoslash.

**21-BILET**

1. Tugunak va ildizpoyali o‘simliklar haqida ma’lumot bering.
2. Zamburug‘larning o‘ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
3. Ildiz tuklarini mikroskopda kuzatish.

**22-BILET**

1. Barglarning suv bug‘latishi.
2. Bir hujayrali suv o‘tlar.
3. Xona o‘simliklari va plakatlardan foydalanib gulning tuzilishini tushuntiring.

**23-BILET**

1. Barglarning tashqi tuzilishini tushuntirib bering.
2. Bir va ko‘p hujayrali suv o‘tlar haqida ma’lumot bering.
3. Hujayralarning xilma-xilligini ko‘rish uchun o‘simliklarning turli organlaridan preparat tayyorlash.

**24-BILET**

1. Barglarning ichki tuzilishini tushuntirib bering.
2. Funariya yo‘sini qanday usulda ko‘payadi?
3. Pomidor hujayrasini lupa yordamida kuzatish.

**25-BILET**

1. Novdada barglar qanday joylashadi?
2. Dala qirqbo‘g‘imi haqida ma’lumot bering.
3. Gulli o‘simliklarning organlari bilan tanishish.

**26-BILET**

1. Fotosintez jarayonini tushuntirib bering.
2. Qirqquloqlar bo‘limi vakillari qanday sharoitda o‘sadi?
3. Barglarning suv bug‘latishini tajribada qanday kuzatish mumkin.

**27-BILET**

1. Qanday yovvoyi yem-xashak o‘simliklari haqida bulasiz?
2. Sho‘radoshlar oilasiga kiruvchi o‘simliklarning gul tuzilishi qanday?
3. Ildiz tuklarining tuzilishini mikroskopda kuzatish.

**28-BILET**

1. Barglarning suv bug‘latishi qanday amalga oshadi?
2. O‘simlik dunyosiga ekologik omillarning ta’siri nimadan iborat?
3. Mikroskop bilan ishlash qoidalarini tushuntirib bering.

**29-BILET**

1. Vegetativ usulda ko‘payuvchi qanday yovvoyi o‘simliklarni bilasiz?
2. O‘zbekistonning o‘simlik boyligi haqida ma’lumot bering.

3. Piyoz po‘sti hujayrasini mikroskop ostida o‘rganish.

**30-BILET**

1. Madaniy o‘simliklarning vegetativ ko‘payishini qanday shakllari bor?
2. Yerda o‘simlik dunyosining rivojlanishi haqida nimalarni bilasiz?
3. Mikroskopning tuzilishini tushuntirib bering.